

Date: 23rd December-2025

**BOLALARNI PARVARISHLASHDA ORTOPEDIK VOSITALAR VA ULARNING
BOLALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI**

Tuychiyeva Adina Baxodirovna

Yunusova Difuza Abdulxayevna

Abu Ali ibn Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi

info@qjst.uz

Dolzarbligi. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari - pediatriyada keng tarqalgan muammolardan bo'lib, ularning erta aniqlanishi va to'g'ri parvarishi bolaning hayot sifati va jismoniy funksiyalarini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Ortopedik vositalar (korrektiv oyoq kiyimlar, breyslar va korsetlar) skelet va muskullar tizimini biomexanik jihatdan qo'llab quvvatlab, deformatsiyalarni kamaytirish va turmush sifatini yaxshilash imkonini beradi. Global miqyosda bolalar orasida tayanch-harakat tizimi patologiyalari bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi (o'qishdagi qiyinchiliklar, jismoniy faollikning kamayishi, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ta'sir).

Material va usullar. Tadqiqot 2020-2024 yillarda Farg'ona viloyatida olib borilgan kuzatuvlarga asoslanadi. Jami 850 nafar bola (3-14 yosh) o'rganildi, 430 nafari ortopedik vositalardan foydalanuvchi guruh, 420 nafari oddiy parvarishda bo'lgan nazorat guruhi. Bolalar salomatligi mezonlari sifatida tayanch-harakat tizimi rivojlanishidagi og'ishlar (skolioz, tekis panja, tortikollis), jismoniy faoliyat ko'rsatkichlari, oyoq-qo'l simmetriyasi va mushak kuchi, psixologik holat (o'zini baholash, ijtimoiy moslashuv) tahlil qilindi. Statistik ishlov Microsoft Excel va SPSS dasturlari orqali o'tkazildi, $p < 0,05$ darajasi ishonchli deb qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ortopedik vositalar qo'llangan bolalarda tayanch-harakat tizimi kasalliklarining rivojlanish chastotasi sezilarli darajada kamaygan. Xususan, skolioz va boshqa umurtqa qiyshikliklari 4 yil davomida ortopedik vosita kiygan bolalarda 32%dan 14%gacha pasaygan bo'lsa ($p < 0,05$), nazorat guruhida bu ko'rsatkich deyarli o'zgarmagan holda 29%dan 26%gacha qolgan. Tekis panja (platypodia) rivojlanishi ham ortopedik oyoq kiyim kiygan bolalarda 3 yil davomida 21%dan 9%gacha kamaygani qayd etilgan, nazorat guruhida esa bu kasallikning tarqalishi deyarli o'zgarmagan - 19%dan 17%gacha. Mushak kuchi va jismoniy faollikni baholashda ham sezilarli farqlar kuzatildi: ortopedik vositalar bilan parvarishlangan bolalarning jismoniy test natijalari nazorat guruhiga qaraganda 18-22 % yuqori chiqqan. Bundan tashqari, psixologik va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari ham ortopedik qo'llab-quvvatlovchi vositalar qo'llangan bolalarda yaxshiroq bo'lib, maktabdagi ijtimoiy faoliyat darajasi nazorat guruhiga nisbatan ikki baravar yuqori bo'lgan ($p < 0,01$).

Olingan ma'lumotlar shuni anglatadiki, ortopedik vositalar nafaqat tayanch-harakat tizimi kasalliklarini profilaktika qilishda, balki bolalarning umumiy salomatligi, jismoniy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvida ham katta ahamiyatga ega. Bu natijalar xalqaro tajribalar bilan hamohangdir: Germaniya va Yaponiya pediatriya klinikalarida o'tkazilgan



Date: 23rd December-2025

kuzatuvlarda ham ortopedik vositalardan foydalanish natijasida bolalarda umurtqa qiyshikligi rivojlanishi 40 %gacha kamaygani qayd etilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda, xususan Farg'ona viloyatida ortopedik vositalardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda, ammo mutaxassislarning ta'kidlashicha, ota-onalarning qariyb 35 %i bolalarida ortopedik muammolarni kech aniqlaydi, bu esa davolash va parvarishlash samaradorligini kamaytiradi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ortopedik vositalardan foydalanish bolalarda tayanch-harakat tizimi kasalliklari rivojlanishini sezilarli darajada kamaytiradi. Ortopedik oyoq kiyimlar, korset va breyslar qo'llangan bolalarda skolioz va platypodia chastotasi nazorat guruhiga nisbatan ancha past bo'lib chiqdi, mushak kuchi va jismoniy faollik darajasi yuqori, psixologik va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari esa ancha yaxshilandi. Demak, ortopedik vositalar nafaqat kasalliklarning oldini olishda, balki bolalarning umumiy rivojlanishi va hayot sifatini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

